

YURT OZODLIGI – XALQ BAXTI

Toshboyeva Dilshoda Ochilboy qizi**Karimov Muhammadjon To'liqin o'g'li****Toshkent davlat agrar unuversiteti Meva-sabzavotchilik va
uzumchilik fakulteti 1-bosqich talabalari****Durxo'jayev Shavkat Fayzullayevich****Toshkent davlat agrar universiteti Issiqxona o'jaligini tashkil etish kafedrası
q.x.f.f.d.(PhD) dotsent****Toshboyevadilshoda4@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.16759529>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 34 yilligiga bag'ishlangan holda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, mustaqillik sharofati bilan erishilgan yutuqlar va yangi O'zbekiston taraqqiyotida yoshlar tutayotgan o'rni yoritilgan. Istiqlolning ahamiyati, xalqimiz uchun erkinlik va barqarorlikning qadri tahlil etilgan.

Kalit so'zlar. Mustaqillik, istiqlo, yangi O'zbekiston, taraqqiyot, yoshlik, vatanparvarlik, ozodlik.

Аннотация: В данной статье освещаются достижения, достигнутые за 34 года независимости Республики Узбекистан, проводимые реформы и особое внимание, уделяемое молодежи в развитии Новой Узбекистана. Также рассматривается значение независимости, свободы и стабильности для узбекского народа.

Ключевые слова: Независимость, суверенитет, Новый Узбекистан, прогресс, молодежь, патриотизм, свобода.

Abstract: This article is dedicated to the 34th anniversary of the independence of the Republic of Uzbekistan. It highlights the reforms implemented in the country, the achievements gained through independence, and the crucial role of youth in the development of New Uzbekistan. The significance of freedom and national stability is also discussed.

Keywords. Independence, sovereignty, New Uzbekistan, development, youth, patriotism, freedom.

Kirish. 1991-yil 1-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini e'lon qildi. Bu sana xalqimiz uchun erkinlik, o'zligini tiklash, yangi taraqqiyot sari yo'l ochilishining boshlandi. Har bir yil – istiqlo tarixida yangi sahifa, yangi bosqichdir. Bugun, 34 yil davomida yurtimizda amalga oshirilgan o'zgarishlarga nazar solar ekanmiz, mustaqillik qanday ulug' ne'mat ekanini yanada chuqur anglaymiz.

Asosiy qism. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, mamlakatda barcha sohalarda tub islohotlar boshlandi. Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalar yangi yo'nalishda rivojlana boshladi. Ayniqsa, so'nggi yillarda "Yangi O'zbekiston – yangi taraqqiyot bosqichi" tamoyili asosida olib borilayotgan islohotlar, xalqparvarlik siyosati, yoshlarga qaratilgan e'tibor eng muhim ustuvor yo'nalishlardan bo'ldi. Ta'lim, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi, ilm-fan, texnologiyalar sohasida ko'plab yangiliklar, erkinliklar yaratildi. Yurtimiz dunyo miqyosida o'z o'rnini topmoqda. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik, xorijiy sarmoyalar jalb etilishi – bularning barchasi mustaqillik sharofatidir. Yosh avlod uchun imkoniyatlar kengaymoqda: stipendiyalar, xorijiy oliygohlarga kirish imtiyozlari, grantlar, ilmiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash – bular O'zbekistonning ertangi kunini yorqin bo'lishiga xizmat qilmoqda. Har bir yosh o'z orzusi sari intilish uchun zarur imkoniyatlarga ega. Yurt bayrog'i, gerbi, madhiyasi,

milliy valyutasi, Konstitutsiyasi – bular milliy davlatchiligimizning timsolidir. Ularning barchasi mustaqillik mevasidir.

Xulosa

Mustaqillik – bu shunchaki tarixiy sana emas, balki xalqimizning erkin hayotga bo'lgan intilishi, orzularining ro'yobidir. Uni asrab-avaylash, yanada mustahkamlash biz – bugungi avlodning muqaddas burchidir. Har bir yosh yurtdosh yurt ravnaqi uchun fidokorona mehnat qilishi, Vatan manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yishi zarur. Mustaqillik – bu bizning baxtimiz, faxrimiz va eng aziz ne'matimizdir.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2022.
2. Shavkat Mirziyoyev. "Yangi O'zbekiston strategiyasi" – Toshkent: Uzbekistan, 2023.
3. "Mustaqillik – taraqqiyot asosi" maqolalar to'plami. – Toshkent: Ma'naviyat, 2021.
4. O'zbekiston Milliy axborot agentligi (www.uza.uz)
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti – www.prezident.uz